



2019 yil yanvar-may oylarida Samarqand viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yil yanvar-may oylarida viloyatdagi korxonalar tomonidan 5984,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 110,8 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati - 11,5 % ga o'sishi hisoblandi.

Yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Samarqand viloyatida o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash




98,6 %



110,8 %

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish



88,1 %

Ishlab chiqaradigan sanoat



111,5 %



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



98,4 %

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 37,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 0,6 % ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2019 yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5743,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,0 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,6 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali - 27,2 % ni, o'rta-quyi texnologiyali - 11,8 % ni va quyi texnologiyali - 60,4 % ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 171,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,9 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 32,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 3152,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan 1,4 % ga o'sishini ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 52,7 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sish sur'ati



2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 65,1 % dan 2019-yil yanvar-may oyida 62,5 % ga pasayishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 3,8 % ni (2018-yil yanvar-may oylarida 3,3 %) tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2636,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 44,1 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajimdagi ulushi, %.

2018-yil yanvar-may

2019-yil yanvar-may




- Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
- Viloyatning boshqa korxonalari

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'pi Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 43,7 %), Jomboy (18,2 %), Tayloq (8,0 %), Urgut (7,9 % va Samarqand (7,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019-yil yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm)




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hisyasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2471,1 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 41,3 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Nurobod tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Qo'shrabot (100,0 %), Samarqand (99,7 %), Urgut (96,9 %), Oqdaryo (90,7 %), Bulung'ur (88,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush, Kattaqo'rg'on shahri (30,3 %), Narpay (20,7 %), Jomboy (16,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)
Qayta ishlash sanoati

<i>Sanoat mahsulotlari nomi</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2019-yil yanvar-may</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
Tarkibida ikkita ta'minlovchi element–azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar	 ming tonna	10,66	104,5 ↑
Aroq	 ming l. 100% spirt	98,5	13,8 ↓
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	 ming l. 100% spirt	82,1	150,4 ↑
Uzum vinosi	 ming l.	479,5	77,4 ↓
Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)	 ming l.	9715,0	99,5 ↓
Yumshoq bug'doy va spelta uni	 ming tn.	62,7	96,7 ↓

Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni(buxanka), og'irligi 600 g.



tn. 288,0 94,4 ↓

Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)



tn. 4445,0 66,3 ↓

Paxta tolasi



ming tn. 18,7 43,0 ↓

Paxta chigiti



ming tn. 30,8 56,6 ↓
ming tn.

Paxta tiviti (lint)



tn. 1612,0 57,0 ↓

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi



mln.kVt/s 30,8 170,2 ↑

Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)




ming Gkal. 31,5 92,9 ↓

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini


Bugungi kunda viloyatda 5525 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1480 tasi (mavjud korxonalar umumiy soning 26,8 %) Samarqand shahriga, 789 tasi (14,3 %) Urgut tumaniga, 517 tasi (9,4 %) Samarqand tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil 1 iyun holatiga)



2019-yil yanvar-may oylarida viloyatda 1117 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning asosiy qismi Samarqand shahri (19,3 foiz), Urgut (10,6), Samarqand (9,1 foiz), Pastdarg'om (9,3 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil 1 iyun holatiga)



Sanoat statistikasi bo'limi

E.A.Qo'qonov

Tel: (66) 235-06-80